



AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQNI HISOBLASH VA UNDIRISH MEKANIZMI TAHLILI

PhD, dots. **Yangiboyev Husniddin**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-7269-4418

h.yangiboyev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada aylanmadan olinadigan soliqning joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati, davlat byudjetida soliq turlari bo'yicha tushumining o'rni, to'lash tartibi va qo'llashdagi o'ziga xos xususiyatlari, aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq to'lovchilar, aylanmadan olinadigan soliq, soliq turi, qat'iy, davlat byudjeti, soliq davri, soliq solinadigan baza, soliq hisoboti.

АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА РАСЧЁТА И ВЗИМАНИЯ НАЛОГА С ОБОРОТА

PhD, доц. **Янгибоев Хусниддин**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы введения налога с оборота, его экономическая сущность, место доходов в государственном бюджете по видам налогов, порядок уплаты и особенности его применения, а также разрабатываются выводы и предложения по совершенствованию механизма исчисления и взимания налога с оборота.

Ключевые слова: налогоплательщики, налог с оборота, вид налога, фиксированный, государственный бюджет, налоговый период, налогооблагаемая база, налоговая отчетность.

ANALYSIS OF THE MECHANISM FOR CALCULATING AND COLLECTING TURNOVER TAX

PhD, assoc. prof. **Yangiboyev Husniddin**

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article discusses the introduction of turnover tax, its economic essence, the place of revenue in the state budget by type of tax, the procedure for payment and its specific features in application, and conclusions and proposals are developed to improve the mechanism for calculating and collecting turnover tax.

Keywords: taxpayers, turnover tax, tax type, fixed, state budget, tax period, taxable base, tax reporting.

Kirish.

Aylanmadan olinadigan soliq – bu O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan maxsus soliq rejimi hisoblanib, u soliq to'lovchining muayyan faoliyat turi bo'yicha olgan jami daromadiga nisbatan belgilangan foiz stavkasi asosida hisoblab olinadigan soliqqa tengdir.

Mazkur soliq shakli, asosan, soddalashtirilgan soliq tizimi doirasida faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib, soliq hisobotlarini yuritish va soliq to'lovlarini amalga oshirishda soddalik va qulaylikni ta'minlaydi.

Soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash rejimiga o'tish istagini bildirgan taqdirda, ular soliq hisobida turgan joydagi soliq organini bu haqda yozma ravishda navbatdagi soliq davri boshlanishidan kamida o'n kun oldin xabardor qilishi lozim. Mazkur bildirishnoma belgilangan muddatda topshirilgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi sifatida tan olinadi. Ayrim korxonalar esa, ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va foyda solig'ini to'lash tartibiga o'tgan bo'lsalar-da, agar ular joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari 1 milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, bunday korxonalar kamida 12 oydan keyin qaytadan aylanmadan olinadigan soliq rejimiga o'tish huquqiga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar sharhi.

Aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i) Birinchi jahon urushi davrida Germaniya va Fransiya joriy etilgan. Uni keyinchalik boshqa mamlakatlar ham qo'llay boshlagan.

Aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i)ni kiritishdi fiskal maqsadlari: qo'shimcha mablag'larga bo'lgan talabani qondirish, budjetning o'ta taqchillikini qoplashni nazarda tutilgan. Bu soliqdan keladigan mablag'ning o'sishi o'z-o'zidan ta'minlanadi. Bu esa inflyatsiya sharoitida narxlarining o'sishi hisobiga, shuningdek, xizmat ko'rsatish ob'ektlari kengayishi natijasida ro'y beradi. Avvalo korxona tovar aylanmasi narxi ko'ppog'onali (kaskadsimon) yoki kumulyativ deb ataluvchi usul bilan soliqqa tortilgan, ya'ni soliq ishlab chiqarishning yoki tovar aylanmasining har bir bosqichida (tovarning kompaniya ichida aylanishi bundan mustasno) olingan. Bunday tizim GFR, Belgiya, Avstriya va boshqa davlatlarda 1960 yillarning oxirigacha amalda bo'lgan. Ko'p martalab soliq solinishi to'lov operatsiya (muomala)larini qiyinlashtirgan, chunki bu juda ko'p hujjatlar yuritilishini talab qilgan. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi o'tgan soliq solishning eng oddiy usuli: aylanmadan bir marotaba – ishlab chiqarish, ulgurji yoki chakana savdo bosqichidan ancha qo'lay stavka bo'yicha soliq olishdan iborat.

Aylanma solig'ining boshqacha ko'rinishi ulgurji savdo bo'g'inida olinadigan soliq hisoblanadi. Bu soliqning ob'ekti tovar aylanishi va uni ko'tarasiga tovar oluvchi firmalarga sotish jarayonida namayon bo'ladi. Agar sanoat kompaniyalari ulgurji savdodan voz kechib, tovarlarni bevosita chakana tarmoqda sotsa, undan ularning aylanmalari ham sotib olingan molga solinadigan soliqqa tortiladi. Soliqning bu shakli Buyuk Britaniya 1940 yildan, Shvesariya 1941 yildan, Portugaliya 1966 yildan buyon qo'llaniladi.

Bir qator mamlakatlar (Norvegiya – 1940 yildan buyon, Shvesiya – 1960 yildan buyon, AQShning ba'zi shtatlari, Kanada provinsiylari) chakana savdoda sotilgan mollarga soliq solish turidan keng foydalanadi. Soliq solinadigan ob'ekt – oxirigi iste'molchiga tovar sotish aylanmasidir.

Soliqning bu turini qo'llash kichik savdo korxonalari ko'psonli ekanligi sababli murakablashadi. 1960 yillarda aylanmadan olinadigan soliqning (oborot solig'i) boshqa bir ko'rinishi qo'shilgan qiymat solig'i keng tarqaldi (Mamanazarov, 2003).

Rivojlangan mamlakatlarda aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i)dan keng foydalanilishiga sabab uning nafaqat inflyatsiya jarayonida katta fiskal ahamiyatga ega ekanligi, balki undan ishalab chiqarish jarayoniga ta'sir qilish uchun foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (2019) 461-moddasiga asosan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari hamda soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (2019) 469-moddasiga asosan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilarni kalendar yil bu soliq davri hisoblansa bir oy hisobot davri hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Aylanmadan olinadigan soliqning nazariy masalalar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2026 yildan boshlab aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar 1 foizlik aylanma solig'i to'laydi. Elektron to'lovlarni qabul qilish uchun maxsus QR-kodga ega bo'lish chakana savdo qoidalarining majburiy talabiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga asosan, yillik aylanmasi 1 milliard so'mdan oshgan va shuning asosida umumiy soliqqa tortish tizimiga o'tgan yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasi bir yil davomida 2 barobar kamaytirilgan holda qo'llanilishi belgilandi. Bu soliq yuki keskin ortib ketmasligi va tadbirkorlik faoliyatining uzluksiz davom etishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

2023-yil 1-yanvardan boshlab, aylanmadan olinadigan soliq stavkalarining barcha toifalar bo'yicha 4 foiz miqdoridagi yagona stavkada birxillashtirilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ushbu stavka joylashuv hududi, aholi zichligi hamda faoliyat turi kabi omillar inobatga olingan holda pasaytirilgan stavkalar shaklida saqlab qolindi. Bu yondashuv hududlararo soliq tengligini saqlab qolgan holda iqtisodiy faollikni geografik diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida 2023-yil davomida aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida 178,4 milliard so'mga yaqin mablag' qolishi ta'minlandi. Bu esa nafaqat ularning aylanma mablag'larini kengaytirish, balki investitsiyaviy faolligini oshirishga ham xizmat qildi.

Shuningdek, 2023-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun soliq to'lashning qat'iy belgilangan summalar asosidagi ixtiyoriy shakli joriy qilindi. Bunday mexanizm mikro va kichik tadbirkorlar uchun soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliqqa oid hisob-kitoblarni osonlashtirish va huquqiy aniqlikni ta'minlash imkonini berdi.

Ushbu yondashuvlar O'zbekiston soliq tizimining liberallasuvi va tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratilishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayni vaqtda, ular soliq ma'muriyatchiligi va fiskal siyosatni optimallashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Aylanmadan olinadigan soliq hisobot shaklini to'ldirish va yuborish my.soliq.uz yoki hisobot.soliq.uz saytlari orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda shaxsiy kabinetga kirgandan so'ng yuridik shaxslarning hisobotlarini yuborish bo'limiga o'tiladi.

Elektron shakllardan kerakli bo'lgan aylanmadan olinadigan solig'i hisobotlari shakli orqali aylanmadan olinadigan solig'i hisob-kitobini tanlab olinadi. Soliq hisobot shaklida bo'lgan yil, soliq davri, hisobot turi belgilanadi.

Shundan so'ng hisob-kitobi ko'rsatkichlari ushbu hisob-kitob soliq to'lovchilar tomonidan yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan so'mda to'ldiriladi

1-jadvalda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarning soni tahlil qilingan.

1-jadval

2024-yil 1-yanvar holatiga Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar soni tahlili

№	Hudud nomi	AOS to'lovchilar soni	shundan		jumladan					
			AOS	Qat'iy	YUSHlar soni	shundan		YATTlar soni	shundan	
						AOS	Qat'iy		AOS	Qat'iy
	Jami	360 222	304 203	56 019	317 085	275 713	41 372	43 137	28 490	14 647
1	Qoraqalpog'iston Res.	19 148	17 945	1 203	17 403	16 403	1 000	1 745	1 542	203
2	Andijon viloyati	22 400	19 127	3 273	20 080	17 855	2 225	2 320	1 272	1 048
3	Buxoro viloyati	22 635	18 037	4 598	19 333	16 371	2 962	3 302	1 666	1 636
4	Jizzax viloyati	17 347	14 930	2 417	16 049	14 258	1 791	1 298	672	626
5	Qashqadaryo viloyati	26 801	23 838	2 963	24 157	22 061	2 096	2 644	1 777	867
6	Navoiy viloyati	17 379	15 647	1 732	15 970	14 538	1 432	1 409	1 109	300
7	Namangan viloyati	20 945	18 118	2 827	19 182	16 854	2 328	1 763	1 264	499
8	Samarqand viloyati	36 222	30 910	5 312	33 853	29 137	4 716	2 369	1 773	596
9	Surxondaryo viloyati	18 459	15 947	2 512	17 069	14 953	2 116	1 390	994	396
10	Sirdaryo viloyati	9 696	8 248	1 448	8 884	7 691	1 193	812	557	255
11	Toshkent viloyati	33 443	27 939	5 504	28 436	24 385	4 051	5 007	3 554	1 453
12	Farg'ona viloyati	33 840	28 812	5 028	30 631	26 762	3 869	3 209	2 050	1 159
13	Xorazm viloyati	21 445	17 183	4 262	19 109	15 869	3 240	2 336	1 314	1 022
14	Toshkent shahri	60 462	47 522	12 940	46 929	38 576	8 353	13 533	8 946	4 587

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadvalga qaraydigan bo'lsak, 2024-yil 1-yanvar holatiga 360 222 ta aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar mavjud bo'lib, shundan eng ko'p hududlar bu Toshkent shahrida, 60 462 ta, Samarqand viloyatida 36 222 ta, Farg'ona viloyatida 33 840 ta aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, eng kam hududlar bo'lib, bu Sirdaryo viloyatida 9 696 ta, jizzax viloyatida 17 379 ta hamda Surxondaryo viloyati 18 459 tani tashkil etgan.

Hududlar kesimida jami 360 222 ta aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarning 304 203 tasi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lib hisoblansa, 56 019 tasi qat'iy belgilangan soliq to'lovchilardir. Shundan 317 085 tasi yuridik shaxslar hisoblansa, 43 137 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida faoliyat yuritmoqda. jumladan yuridik shaxslarning 275 713 tasi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar hisoblansa, 41 372 tasi qat'iy belgilangan soliq to'lovchisi hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar 28 490 tasi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar hisoblansa, 14 647 tasi qat'iy belgilangan soliq to'lovchisi hisoblanadi.

2-jadval O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan har-xil sohadagi korxonaning 5 yillik aylanmadan olinadigan soliq hisoboti tahlili keltirilgan.

«X-XIKMAT» xususiy korxonaning 2019-yilda jami tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan sof tushum 875200 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 19400 ming so'mni tashkil etgan. Hisoblangan aylanmadan olinadigan soliq summasi 35008 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023-yilda 776,0 ming so'mni tashkil etgan.

«NEXT FINANS SAVDO» MCHJ korxonaning 2019-yilda jami tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan sof tushum 197375 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 974341 ming so'mni tashkil etgan. Hisoblangan aylanmadan olinadigan soliq summasi

7895 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 38974,0 ming so'mni tashkil etgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotga har-xil sohadagi korxonaning 2019-2023-yillar bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq hisoboti tahlili (ming so'mda)

Yillar	«X-XIKMAT» xususiy korxona				
	Tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan sof tushum	Soliq solinadigan jami daromadning kamaytirilishi	Soliq solinadigan baza	Soliq stavkasi	Solig'i summasi
2019	875 200		875 200,0	4	35 008
2020	449 280		449 280	4	17 971
2021	128 555		128 555,0	4	5 142
2022	60 701		60 701,0	4	2 428
2023	19 400		19 400,0	4	776
Yillar	«NEXT FINANS SAVDO» MCHJ				
	Tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan sof tushum	Soliq solinadigan jami daromadning kamaytirilishi	Soliq solinadigan baza	Soliq stavkasi	Solig'i summasi
2019	197 375		197 375	4	7 895
2020	328 030		328 030	4	13 121
2021	920 541		920 541	4	36 822
2022	938 906		938 906	4	37 556
2023	974 341		974 341	4	38 974
Yillar	«OFTOB BURJI» MCHJ				
	Tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan sof tushum	Soliq solinadigan jami daromadning kamaytirilishi	Soliq solinadigan baza	Soliq stavkasi	Solig'i summasi
2019	34 857		34 857	4	1 394
2020	29 818		29 818	4	1 192
2021	101 785	92 335	9 450	4	378
2022	318 222	283 518	34 704	4	1 388
2023	427 079	311 000	116 079	4	4 643

Manba: «X-XIKMAT» xususiy korxonasi, «NEXT FINANS SAVDO» MCHJ, "OFTOB BURJI" MCHJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

«OFTOB BURJI» MCHJ korxonaning 2019-yilda jami tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan sof tushum 34857 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 427079 ming so'mni tashkil etgan. Hisoblangan aylanmadan olinadigan soliq summasi 34857 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 116079 ming so'mni tashkil etgan.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan «X-XIKMAT» xususiy korxonaning 2019-2023-yillar bo'yicha soliq hisobotlari tahlil qilindi (3-jadval).

«X-XIKMAT» xususiy korxonaning 2019-yilda aylanmadan olinadigan soliq bazasi 875 200,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 35 008,0 ming so'mni tashkil etgan. 2020-yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi 449 279,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 17 971,2 ming so'mni tashkil etgan. 2021-yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi 128 555,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 5 142,0 ming so'mni tashkil etgan. 2022-yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi

60 701,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 2 428,0 ming so'mni tashkil etgan. 2023-yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi 19 400,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 776,0 ming so'mni tashkil etgan.

3-jadval

«X-XIKMAT» xususiy korxonaning 2019-2023-yillar bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq hisoboti tahlili (ming so'mda)


Ko'rsatkichlar	jami	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan sof tushum (Hisob-kitobning 1- ilovasi 020-satr + 030-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Faoliyat turlari bo'yicha daromadning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan jami daromadlaridagi salmog'i, foizda	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00
Boshqa daromadlar (Hisob-kitobning 1-ilovasi 040-satri - 0403-satri + 04031-satri)						
Soliq solinadigan jami daromad (010-satr + 020-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Soliq solinadigan jami daromadning kamaytirilishi (hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri)						
Soliq solinadigan baza – jami (030-satr - 040-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Soliq stavkasi, foizda	x	4,00	4,00	4,00	4,00	4,00
Tuzatish kiritilgan soliq stavkasi, foizda (Hisob-kitobning 3-ilovasining 040-satri, 050-satri yoki 120-satri)	x	4,00	4,00	4,00	4,00	4,00
Aylanmadan olinadigan soliq summasi – jami (050-satr x 061-satr), shu jumladan:	61 325,2	35 008,0	17 971,2	5 142,0	2 428,0	776,0
Hisobda turgan joyi bo'yicha (070-satr - 0701-satr)	70 077,2	43 760,0	17 971,2	5 142,0	2 428,0	776,0

Manba: «X-XIKMAT» xususiy korxonaning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan «X-XIKMAT» xususiy korxonasi 2019-2023-yillar davomida jami aylanmadan olinadigan soliq bazasi 1 533 135,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 70 077,2 ming so'mni tashkil etgan.

2-rasmda 2024-yil 1-yanvar holatiga Davlat byudjetga aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarning qarzi hududlar kesimida ulushiga qaraydigan bo'lsak, 2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar bo'yicha jami 403,8 mlrd. so'mlik soliq qarzi majud bo'lib, shundan 162,1 mlrd. so'mi ishchi boqimanda qarz hisoblanadi. Hududlar kesimida eng ko'p aylanmadan

olinadigan soliq to'lovchilarning qarzi Toshkent shahrida 71,5 mlrd. so'm bo'lib, shundan ishchi boqimanda qarzi 21,3 mlrd. so'm, Toshkent viloyatida 59,3 mlrd. so'm bo'lib, shundan ishchi boqimanda qarzi 15,3 mlrd. so'm, Sirdaryo viloyatida 36,9 mlrd. so'm bo'lib, shundan ishchi boqimanda qarzi 9,5 mlrd. so'm, Farg'ona viloyatida 33,9 mlrd. so'm bo'lib, shundan ishchi boqimanda qarzi 11,7 mlrd. so'm, Andijon viloyatida 32,2 mlrd. so'm bo'lib, shundan ishchi boqimanda qarzi 13,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.



2-rasm 2024-yil 1-yanvar holatiga Davlat byudjetga aylanmadan olinadigan soliq qarzining hududlar kesimida ulushi diagrammasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bizga ma'lumki, aylanmadan olinadigan soliq rejimi soddalashtirilgan soliq rejimi hisoblanib, mikrofirma va kichik korxonalar uchun soliq majburiyatlarini yengillashtirish hamda soliq yukini kamaytirish maqsadida qo'llanadi. Aylanmadan olinadigan soliq odatda iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda mikrofirma va kichik korxonalarning daromadlarini soliqqa tortishda keng foydalanib kelinmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlariga qo'llab-quvvatlash uchun hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish maqsadida respublika tuman va shaharlariga ajratilgan toifalarni, hududlarning tabiiy sharoitidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yil yakuniga ko'ra rentabellik darajasini oshirgan korxonalarga nisbatan aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha regressiv stavkalarni qo'llash kerak.

Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va undirish mexanizmi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar jami daromadi ko'rsatilgan miqdorga yetgan kundan e'tiboran foyda solig'ini to'lashga o'tish lozim deb taklif ishlab chiqdik hamda amaliyotga joriy qilindi. Qonunchilikda biz bergan taklifdan oldin amalda, soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro'y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tishi belgilangan edi. Biz bergan ushbu

taklif O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda inobotga olinib, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O'RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 462-moddasida o'z aksini topgan. Bizni bergan taklif orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar jami daromadi ko'rsatilgan miqdorga yetgan kundan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tadi va byudjetga qo'shimcha soliq tushishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Kodeks (2019) O'zbekistan Respublikasining Soliq kodeksi (O'zR 30.12.2019 y. O'RQ.-599-son Qonuni bilan tasdiqangan) BUXGALTER.UZ .461-469-463-moddalari.

Mamanazarov A. (2003) "Soliq siyosati" Moliya: -118 b.

Yangiboev H.A. (2023) Administration of direct taxes and its theoretical and legal basis journal of law and economics ISSN(Online): 2984-8091 SJIF Impact Factor |: 5.913| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jolae/article/view/62/86>.

Yangiboev H.A. (2023) Bevosita soliqlarning hisobini takomillashtirish Jild 1 № 7: Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil Nashr qilingan: 30-11-2023. <https://eitt.uz/index.php/eitt/article/view/536/517>.

Yangiboev H.A. (2023) Registering accounts directly with tax organizations JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN ISSN (Online):2984-6722 SJIF Impact Factor|: 5.887| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jomb/article/view/57/76>.

Yangiboev Kh. (2021). Features of forming a direct taxation system at the modern stage. Journal of Hunan University (Natural Sciences) . Vol. 48. No. 11. (2021), pp. 1127-1135. <https://johuns.net/index.php/abstract/193.html>.

Yangiboev X. (2021). Ways To Collect Personal Income Tax And Reduce Tax Arrears. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 9, August (2021) pp. 3770-3776 <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/6382>.